

**TARBIYALANUVCHILARGA TA'LIM BERISHDA TA'LIM SIFATINI
OSHIRISH VA JARAYONNI TAKOMILLASHTIRISH**

Samarkand viloyat Jomboy tumani

9- son DMTT direktor o'rinbosari

Xojimurotova Yulduz Mirzamuxammad qizi

Annotatsiya. Bu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar, islohotlar va innovatsion yondashuvlar va ta'lin samaradotligini oshirish haqida aytib o'tilgan. Bundan tashqari ta'limda pedagog tarbiyachi, muallimlarning o'zini samarali ta'lim tizimi tajribasi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается управление и планирование в организациях дошкольного образования как одна из актуальных проблем. В статье представлены идеи инновационных методов управления в таких организациях.

Abstract: This article discusses the management and planning of preschool educational organizations as one of the current challenges. The article presents ideas on innovative management methods in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, samaradorlik, bolalar, pedagog tarbiyachi, ta'lim jarayonlari, O'yin kompetensiyasi, bilish kompetensiyasi, o'yinli mashg'ulotlar.

Ключевые слова: образовательная система, эффективность, дети, педагог, образовательный процесс, Игровая компетентность, познавательная компетентность, игровая деятельность.

Key words: educational system, efficiency, children, pedagogue, educational processes, Game competence, cognitive competence, game activities.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Chunki bolaning ilk rivojlanish davri aynan maktabgacha ta'lim tashkilotida shakllanadi. Ushbu bosqichda berilgan tarbiya va ta'lim bolalarning kelgusidagi bilim olishga bo'lgan qiziqishi, tafakkuri, nutqi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli tarbiyalanuvchilarga ta'lim berishda ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. *Maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, ta'lim sifati, ta'lim samaradorligi, ta'lim-tarbiya jarayoni, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, integratsiyalashgan mashg'ulotlar, STEAM yondashuvi, tarbiyachi kompetensiyasi, pedagogik mahorat, metodik ta'minot, rivojlantiruvchi muhit, didaktik materiallar, ijodkorlik, nutq rivoji, muloqot madaniyati, ijtimoiy moslashuv, ota-onalar bilan hamkorlik, tarbiyaviy ishlar, ta'limni*

rejalashtirish, monitoring, baholash, nazorat, ta'lim natijadorligi, maktabga tayyorgarlik, pedagogik boshqaruv.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati faqatgina mashg'ulot o'tish bilan cheklanmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga sifatli ta'lim berish, ta'lim samaradorligini oshirish va jarayonni takomillashtirish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanadi. Zamonaviy metodlar, rivojlantiruvchi muhit, tarbiyachining kasbiy mahorati hamda ota-onalar bilan uzviy hamkorlik — ta'lim sifatining muhim kafolatidir. Ta'lim jarayonini muntazam monitoring qilish, tahlil etish va natijaga qarab takomillashtirish esa yuqori natijadorlikka olib keladi. Ta'lim sifati — bu tarbiyachi mahorati, metodik yondashuvlar, ta'lim muhiti, bolalarning individual qobiliyatlari, ota-onalar bilan hamkorlik, hamda ta'lim jarayonining samarali boshqarilishi bilan uzviy bog'liqdir. Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan oqitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. pedagog va o'quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda 19 asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Ta'lim sifati — bu tarbiyalanuvchilarga berilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarning hayotiy ahamiyatga ega bo'lishi, bolaning yoshiga mosligi, qiziqishiga uyg'unligi hamda amaliy natijaga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'limda sifatli ta'lim quyidagi mezonlarda namoyon bo'ladi:

- bolaning nutqiy rivojlanishi;
- mantiqiy fikrlash va tafakkur o'sishi;
- ijodkorlik va mustaqil faoliyat ko'nikmalari;
- ijtimoiylashuv, muomala madaniyati;
- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi;

G.M. Nazirova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, bu yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati – o'yin. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda esa bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi, - deb hulosa qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois

bolalarning sog'lom va bilimli, etuk kadrlar bo'lib voyaga etishida bog'cha tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi.

MTTlarda bolalar quyidagi kompetensiyalar bo'yicha shakllantiriladi:

➤ *Kommunikativ kompetensiya*–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

➤ *O'yin kompetensiyasi* – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

➤ *Ijtimoiy kompetensiya* – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'z initutish mahorati

➤ *Bilish kompetensiyasi* – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikmamalaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish ko'nikmasi. Shuning uchun hambolaning kompetensiyalarini rivojlantirish lozim.

Ya'ni tarbiyachi doim izlanuvchan tadqiqotchi bo'lishi lozim. Konfutsiy aytganidek, "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi".

Yurtimiz jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bu davrda, uning gullab-yashnashi, rivojlanishi, farovonligi uchun o'z kasbining mohir mutaxassisi bo'lmish, yosh kadrlarimizning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim orasidagi ko'prikn mustahkamroq qilib qurishimiz, ta'limning sifat samaradorligiga innovatsion yo'llar orqali erishishimiz lozim. Buning uchun pedagoglardan juda katta mas'uliyat talab etiladi.

Ma'lumki, o'quv mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan pedagogik va informatsion texnologiyalar bir necha turlarga bo'linib, ulardan eng muhimi — kompyuter texnikasi vositalari yordamida ta'lim berishdir. SHundan kelib chiqib, elektron mashg'ulotlar, mashg'ulot ishlanmalari va elektron o'yinlar orqali ham ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo'shilgan elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg'ulotlarini olib borish talabalar tomonidan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir.

Xulosa shuki: Raqamli ta'lim resurslari yordamida mashg'ulotlarni tashkil etish jarayoni, bunda bolaning olayotgan bilimlarini na faqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. Qator mualliflar tomonidan turli elektron o'qitish vositalari yordamida mavzularning yoritilishni joriy etib borilayotganligi, bunda bolalarning bilim saviyalarining oshib borayotganligini bevosita ishonch hosil qilish mumkinki, bu usullarning yanada takomillashtirilishi, yuqori pog'onaga olib chiqish

kabi zaruratlar oldindan ko‘rib, shu yo‘sinda ta‘lim va tarbiya jarayonini tashkil etish har bir rahbar hamda pedagogning dolzab vazifasi bo‘lishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyalanuvchilarga ta‘lim berishda ta‘lim sifatini oshirish va jarayonni takomillashtirish maktabgacha ta‘lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Ta‘lim sifati tarbiyachining kasbiy mahorati, zamonaviy metodlardan foydalanish, rivojlantiruvchi muhit yaratish, ota-onalar bilan hamkorlik va doimiy monitoring orqali ta‘minlanadi. Sifatli tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot madaniyati va maktabga tayyorgarlik kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bois maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayonini doimiy takomillashtirib borish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda ta‘lim sifati ustidan tizimli nazorat o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim sifatini oshirishning asosiy maqsadi — tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash, ularda bilim olishga qiziqish uyg‘otish hamda maktab ta‘limiga puxta tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Ta‘lim sifatini oshirish jarayonida quyidagi vazifalar muhim hisoblanadi:

- bolalarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish;
- nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish;
- jismoniy va ruhiy sog‘lom rivojlanishga sharoit yaratish;
- ta‘lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish;
- tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi T:2018.1-81-b;
2. F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. "Maktabgacha pedagogika".- T., "Ma'naviyat".3.Sh.
3. A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.:2013
4. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.:2013
5. Usmonov M. Interaktiv elektron o‘quv kurslar — o‘qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. // "Xalq ta‘limi" jurnali, 2013, 5-son.